



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 19-avgust, seshanba,
94 (24.120)-son

O'zbek xalq
maqoli

Dunyo
yorug' bo'lsin
desang,
uyingda
chiroq yoq



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

Тадбиркорлар тақдирланди

Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг 2025 йил 18 августдаги фармонига кўра Тадбиркорлар куни муносабати билан соҳа вакилларида бир гуруҳи давлат мукофотлари билан тақдирланди. Мукофотланганлар орасида вилоятимиздан қуйидагилар бор:

«ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА
ХИЗМАТ КЎРСАТГАН ТАДБИРКОР»

фахрий унвони билан

АБДУЛЛОЕВ Камол Талатович - Самарқанд шаҳридаги «Sam Antep Gilam» масъулияти чекланган жамияти таъсисчиси.

«ДЎСТЛИК» ордени билан

ТЎРАЕВ Зафар Сунонович - Ургут туманидаги «SXF Big Stroy Building» масъулияти чекланган жамияти таъсисчиси.

ЭРГАШЕВ Шўхрат Шарипович - Булунғур туманидаги «Samar kand Garden plast» масъулияти чекланган жамияти директорлар кенгаши раиси

«ШУҲРАТ» медал билан

КОМИЛОВ Насимжон Қобилжонович - Самарқанд шаҳридаги «STD Health Med» масъулияти чекланган жамияти таъсисчиси.

Шунингдек, давлатимиз раҳбарининг «ФАОЛ ТАДБИРКОР» кўкрак нишони билан тақдирлаш тўғрисида»ги фармойишига кўра қуйидагилар ушбу нишонга лойиқ кўрилди:

ҒАНИЕВ Феруз Нормаматович - Самарқанд туманидаги «Asia Carpet Textile» масъулияти чекланган жамияти директори.

ЗАЙНИЕВ Мўҳриддин Меҳрожиддин ўғли - Ургут туманидаги «Yes Gilam» масъулияти чекланган жамияти бош директори

ИЛМУРОТОВ Кудрат Ўролович - Паст Дарғом туманидаги «Кудрат замин дурдонаси» фермер хўжалиги бошлиғи.

КАЗАКОВА Мария Рафаиловна - Самарқанд шаҳридаги «Prime Ceramics» масъулияти чекланган жамияти бош директори

КАРИМОВ Абдунаби Абдуҳакимович - Каттақўрғон туманидаги «Нурли Миёнкал» фермер хўжалиги бошлиғи.

НОРОВ Суннатулла Олимжонович - Ургут туманидаги «Gardencells» масъулияти чекланган жамияти раҳбари.

ЎРОЛОВ Алишер Шўхрат ўғли - Самарқанд шаҳридаги «Enjoy Fly» масъулияти чекланган жамияти таъсисчиси.

ХУШИЕВ Шоҳзоджон Инатилла ўғли - Нарпай туманидаги «Agro Gold Spring» фермер хўжалиги бошлиғи.

ЮСУБАЕВ Азизбек Махамаджон ўғли - Булунғур туманидаги «Samar kand Garden Plast» масъулияти чекланган жамияти раҳбари.

ЯЛГАШЕВ Бахтиёр Тоштемирович - Оқдарё туманидаги «Meganut food dried fruits import-export trading LTD» хорижий корхонаси директори.

Самарқанд шаҳар Yoshlar markazida “Mahoratli o'qituvchi – millat tayanchi” shiori ostida to'rtinchi “Ustozlar milliy forumi”ning yakuniy qismi bo'lib o'tdi. Unda viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boboyev, ta'lim tizimi rahbarlari, o'qituvchi va murabbiylar ishtirok etdi.

O'TGAN O'QUV YILIDA QANDAY NATIJALARGA ERISHILDI?

Maktab bitiruvchilarining 1889 nafari oltin, 348 nafari kumush medallar bilan 11-sinfni tugatdi. 342 nafari xorijdagi oliy ta'lim muassasalariga grantlar asosida qabul qilindi.

Bugun viloyatda ming dollardan ko'p maosh olayotgan o'qituvchilar 249 nafarga yetdi.

O'tgan o'quv yilida maktablarga 24 nafar xorijlik mutaxassislar jalb etildi. Bu yil yana 149 nafar mutaxassisni viloyatga olib kelish rejalashtirilgan.

Xalqaro olimpiadalarda 15 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Jumladan, Hindistonda 30 ta davlat o'quvchilari ishtirok etgan xalqaro matematika musobaqasida Kattaqo'rg'on tumanidagi 48-maktabning 9-sinf o'quvchisi Davronbek Doniyorov 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

KAMCHILIKLAR NIMADA?

86 ta maktab ta'lim darajasi past bo'lgan maktablar ro'yxatiga kiritilgan. Jumladan, Urgutda 25 ta, Qo'shrabotda 17 ta, Nuroboda 13 ta, Kattaqo'rg'on tumanida 12 ta, Past Darg'omda 7 ta, Payariqda 5 ta, Jomboy, Narpay, Ishtixonda 2 tadan va Oqdaryoda 1 ta maktab shunday toifada.

Pedagoglarning sifat tarkibi, ya'ni oliy va birinchi toifali o'qituvchilar ulushi viloyatda o'rtacha 30,9 foizni tashkil etadi. Biroq bu ko'rsatkich Urgut, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Past Darg'om, Payariq,

Ustozlar milliy forumi: yutuqlar e'tirof etildi, muammo va kamchiliklarga yechim izlandi



Nurobod va Samarqand tumanlarida viloyat ko'rsatkichidan ham past.

5384 nafar xorijiy til fani o'qituvchilarining 1699 nafari, ya'ni 31 foizi milliy va xalqaro darajadagi sertifikatlarga ega emas.

Maktab bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichlari ham viloyatda maqtanarli holatda emas. Joriy yilda 50286 nafar maktab bitiruvchilaridan 13499 nafari davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilingan.

QANDAY VAZIFALAR BELGILANDI?

Forumda so'zga chiqqan viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz



- 2024-2025-o'quv yili bizning maktab uchun juda omadli keldi, - deydi Kattaqo'rg'on shahar 11-ixtisoslashtirilgan maktab direktori Ozoda Salimova. - O'quv yili davomida uchta respublika tanlovida o'quvchilarimiz faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdi. 91 nafar bitiruvchimizning 14 nafari oltin medal bilan tamomladi, 31 nafari kasbiy sertifikatlarni qo'lga kiritdi. Oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirishga hujjat topshirgan 71 nafar o'quvchidan 45 nafari talaba bo'ldi. Bugungi forumdan yanada ruhlanim va bundanda katta marralarni qo'lga kiritishni maqsad qildim.



bo'lishi uchun mahoratli, tajribali professor-o'qituvchilar ishtirokida o'quv seminarlar tashkil etish kabi vazifalar belgilab berildi.

Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i Muzaffar Hamdamov xato va kamchiliklardan to'g'ri xulosa chiqargan holda ustuvor vazifalar belgilab olinganini ta'kidladi. Masalan, yangi o'quv yilida oliy toifali o'qituvchilar ulushi 9,8 foizdan 12,2 foizga, birinchi toifalilar 18,3 foizdan 21 foizga, ikkinchi toifalilar 24,3 foizdan 26 foizga yetkaziladi. Shuningdek, inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim maktablari soni 104 tadan 150 taga oshiriladi, har bir tuman va shaharda bittadan “Jasorat maktabi” faoliyati yo'lga qo'yiladi, yangi baholash tizimiga o'tgan maktablar soni 117 tadan 200 taga yetkaziladi.

To'rtinchi “Ustozlar milliy forumi”ning yakunida o'tgan o'quv yilida yutuqlarga erishgan bir qator pedagoglar viloyat hokimining tashakkurnomasi bilan taqdirlandi.

Xurshida ERNAZAROVA,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

БУЛУНҒУР ЖАДАЛ РИВОЖЛАНАЁТГАН ХУДУДГА АЙЛАНМОҚДА



Ватанимиз мустақиллигининг 34 йиллигига



Булунғур тумани асосан қишлоқ хўжалигига, мева-сабзавот ва ғалла етиштиришга ихтисослашган. Тумanning қулай географик жойлашуви, яъни М-39 йўли бўйида жойлашгани ва ҳудуддан темирйўл ўтгани бу ерда саноат ва хизматлар соҳасини ривожлантиришга катта имконият яратса-да, йиллар давомида бундан самарали фойдаланилмаган.

Кейинги йилларда мамлакатимизнинг барча ҳудудларида бўлгани сингари мазкур туманда ҳам кичик саноат зоналари ташкил этилаётгани, йўлбўйи инфраструктураси ва коммуникация тармоқларининг яратилаётгани Булунғурни янада ривожлантириш, аҳоли турмуш даражасини ошириш имконини бермоқда.

Давлатимиз раҳбарининг шу йил 1 апрель куни қабул қилинган қарори асосида республикадаги 16 туман ва шаҳар қаторида Булунғур туманини ҳам жадал комплекс ривожлантириш дастури тасдиқланиши ҳудуд тараққиётида янги даврни бошлади, дейиш мумкин.

(Давоми 2-саҳифада) >>>

Жорий йилнинг 13 август куни Президентимиз раислигида ўтказилган тўқимачилик соҳасида экспорт имкониятлари ва захираларни ишга солиш масалаларига бағишланган юзасидан видеоселектор йиғилишида давлатимиз раҳбари жаҳонда пахта котиروвоклари 2022 йилдан бошлаб пасайиб кетаётгани кластерлар учун муаммо келтираётгани, кейинги уч йилда нарх тоннасига 3 минг доллардан 1,5 минг долларга тушганини қайд этди.

Пахтани бу йил ким теради терим машиналарининг улуши кўпми ёки қўл меҳнати?



Тадбиркорлар эски қарзини янги ҳосил ҳисобидан бир-бирига улаб ёпмоқда. Ушбу вазиятдан чиқиб кетиш учун 2022-2023 йиллар учун пахта хомашёсига берилган имтиёзли кредит 3 марта узайтирилди, ўтган йилда пахта нархини тушириш учун тоннасига 1 миллион сўмдан субсидия берилди.

Давлат раҳбари тижорат кредитидан 2,2 миллиард доллар мажбурияти бор бўлган 144 та корхонани соғломлаштириш чоралари ишлаб чиқилишини билдирди. Фаолиятини барқарорлаштириш мумкин бўлган корхоналарнинг кредит муддати 7 йилгача узайтириб берилади. Шунингдек, пахтани ўз вақтида, нобуд қилмай териб олиш учун фермерларга тоннасига 1 миллион сўмдан субсидия берилади. Корхоналар ўз маблағи ҳисобидан пахта етиштира ёки харид қилса, хомашё қийматининг 10 фоизи қоплаб

берилади.

Ҳозирги сув танқислиги ва iklim ўзгаришлари шароитида пахта етиштириш катта қийинчилик туғдиради. Ер, iklimга мос нав танлаш, агротехник тадбирларни ўз вақтида ўтказиш, сувни тежаб, томчилатиш орқали суғориш ва асосийси етиштирилган ҳосилни қисқа муддатда нест-нобуд қилмасдан йиғиштириб олиш лозим. Бу вазифаларнинг масъулияти ўлароқ вилоятимиздаги 1791 та фермер хўжалиги жорий йилда 60 минг гектар майдонда ғўза парваришлади. Вилоятда 261 минг тонналик хирмон яратиш учун фермер хўжаликлари, кластер корхоналари ишчилари ва кўнгиллилардан иборат 121,7 мингдан ортиқ теримчини бириктирган 690 та терим отряди шакллантирилди.

Вилоят қишлоқ хўжалик бoshқармаси маълумотларига кўра, етиштирилган ҳосилни териб олиш, 69 та терим машинаси, теримчиларни ташиш учун 353 та, 1860 та транспорт, 3267 та тиркама жалб қилинади. Терим машиналари ёрдамида 27 минг гектардаги 130 минг тоннадан ортиқ ҳосилни териб олиш режалаштирилган.

Албатта, йиғим-терим бошланган кунларда пахта ҳосили қанча тез йиғиб олинса, тола сифати шунча юқори бўлади, фермернинг даромади-ю кейинги закирларда ва қайта ишлаш босқичларида қўшилган қиймат ҳам шунча кўпроқ кенгайди. Юқорида келтирилган режалардан келиб чиқадиган бўлса бу йил ҳам асосий ҳосил қўл меҳнати ёрдамида терилади.

Маълумот учун, ўтган йили вилоятимизда дастлаб қўлда терилган ҳар бир килограмм пахта хомашёси учун 2000 сўмгача, машина терими учун 1600 сўмгача ҳақ тўланганди. Кластерлар томонидан фермер хўжаликлари етиштирилган хомашё учун тоннасига 6 миллион 800 минг сўмдан қабул қилаётган бўлса, тайёрланган ҳар тонна хомашё учун давлат томонидан бир миллион сўм субсидия берилиши эвазига пахтанинг тоннаси учун хўжаликлар умумий ҳисобда 7 миллион 800 минг сўмдан ҳақ олиши белгиланганди. Ҳозирча жорий йилги қўлда ёки машинада терилган пахта хомашёсига қанчадан ҳақ тўланиши белгилангани йўқ.

Ўктам ХУДОЙБЕРДИЕВ.

22-23-avgust kunlari mamlakatimizda “Obod va fayzli mahalla — yurt ko'rk'i” shiori ostida umumxalq xayriya hashari o'tkaziladi.
EZGU ISHDAN CHETDA QOLMANG!

Mutaxassislarimiz dunyoga chiqyapti

Mamlakatning ravnaqi, kelajagi ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tiborga bog'liq. Buyuk ajdodlarimizning o'z vaqtida ta'lim-tarbiya va ilm-fan rivoji yo'lidagi sa'y-harakatlari natijasida o'tmishda ikkita uyg'onish davriga asos solindi. Ularning avlodi bo'lgan bugungi o'zbek yoshlari Uchinchi Rennassans poydevorini barpo etishi uchun ta'lim muassasalarida zarur sharoit yaratilyapti. Jumladan, Samarqand davlat chet tillar institutida ham shunday ishlar olib borilyapti.

Ayni paytda ilm maskanimizda 7 ta fakultet, 26 ta kafedra faoliyat yuritmoqda, 19 ta ta'lim yo'nalishi, 14 ta magistratura mutaxassisligi mavjud. Mehnat bozorida-gi talab va ehtiyojdan kelib chiqib, o'tgan o'quv yilidan turizm va mehmondo'stlik ta'lim yo'nalishi ham faoliyat boshladi. Mazkur ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha 11666 nafar bakalavr, 271 nafar magistr tahsil olmoqda. Talabalarga 556 nafar malakali professor-o'qituvchi dars be-radi. Ulardan 175 nafari ilmiy darajaga ega: 36 nafari fan doktori, professor, 139 nafari fan nomzodi, falsafa doktori, dotsentlardir. Bugun professor-o'qituvchilarimizning de-yarli barchasi xorijiy tillarni bilish bo'yicha IELTS va CEFR darajasiga ega.

Institutda ta'lim kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan. Boshqaruv va ta'lim tizimini raqamlashtirish maqsadida 2020-2021-o'quv yilidan o'quv jarayoni HEMIS axborot boshqaruv tizimida olib borilmoqda. Natijada o'quv jarayoni to'liq elektronlashtirilib, dars jadvali, reyting daf-tarchasi, akademik guruh jurnali, talabalar davomati, nazoratlar jadvali, qaydnomalar, to'lov-shartnomalari HEMIS axborot tizimi orqali elektron shaklda yuritilyapti.

Talabalarga "Yagona darcha" tamoyili asosida markazlashgan holda bir joydan

xizmat ko'rsatish uchun "Registrator ofisi" faoliyati yo'lga qo'yildi. Ushbu yangi tizim orqali talabalar va professor-o'qituvchilarga bir joydan xizmat ko'rsatila boshladi.

Ta'lim sifatini oshirish va chet tillarni o'qi-tishni takomillashtirish maqsadida Britaniya kengashining yurtimizdagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda PRESETT dasturi tatbiq etilgan. Ushbu dastur bo'yicha talabalarga zamonaviy texnologiyalar va innovatsion usullar yordami-da dars o'tilmoqda. Institutda beshta yo'na-lish bo'yicha ilmiy-tadqiqot maktabi faoliyat yuritaypti. Shu yil hisobidan qator tashkilotlar bilan jami 592 million so'mlik 87 ta xo'jalik shartnomasi tuzildi. Professor-o'qituvchilari-miz mahalliy malaka oshirish markazlari ham-da xorijiy oliy ta'lim muassasalarida malaka oshirib kelmoqda. 2025-yilning 6 oyi davo-mida 73 nafar professor-o'qituvchi mahalliy malaka oshirish markazlarida, 94 nafari esa xorijiy OTMLarda malaka oshirdi.

Keyingi ikki yilda institutda ta'lim sifatini oshirish uchun xorijdan 74 nafar mutaxassis jalb qilindi. Hozir institutda chet ellik 18 nafar mutaxassis faoliyat yuritmoqda. Bu yil o'qituv-chilarimizdan 6 nafari professor va 36 nafari dotsent ilmiy unvoniga ega bo'ldi. Profes-sor-o'qituvchilarimizning ko'plab o'quv qo'llan-malari, darslik va ilmiy maqolalari nufuzli xalqaro jumallarda nashr qilindi. 52 ta ilmiy ishlarni-maga Intellektual mulk agentligi tomonidan mualliflik guvohnomasi berilgan. Institutda 3 ta ilmiy jurnal faoliyat yuritmoqda. Ulardan ikkitasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissi-yasi ro'yxatiga kiritilgan.

QO'SHRABOTDA IKKITA O'QUV MARKAZI OCHDIK

Prezidentimiz tashabbusi bilan "Kam-bag'allikdan farovonlik sari" umummilliy dasturi ishlab chiqildi va mazkur das-tur doirasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Samarqand davlat chet tillar instituti ham bu kabi xayrli ishlarga o'z hissasini qo'shmoqda. Xususan, o'tgan yilning kuzida Qo'shrabot tumanining olis ikki hududida institut jamoasi tomonidan kam ta'min-langan oila farzandlari, xorijiy davlatlarga ishlash maqsadida ketayotgan fuqarolar

hamda oliy o'quv yurtlariga kirish istagida-gi yoshlar uchun xorijiy tillarni o'qitishga mo'ljallangan o'quv markazlari tashkil etildi.

Mazkur o'quv markazlari uchun tuman markazida joylashgan 82-umumta'lim mak-tabi binosidan 5 ta xona, Jo'sh qishlog'idagi 1-hunar-texnika bilim yurti binosidan 5 ta xona ajratildi. Xonalar dastlab institut mab-lag'lari hisobidan ta'mirlandi, o'quv jiho-zlari va adabiyotlar, ko'rgazmali vositalar, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda pedagog-o'qituvchilar bilan ta'minlandi.

Ikkala o'quv markazlari hamda Xalqaro ta'lim institutning malakali pedagog-o'qituvchi-lari tomonidan ingliz, nemis va koreys tillari o'rgatilib kelinmoqda. Mashg'ulot olib boruv-chi ingliz, nemis va koreys tili mutaxassislari-ga yetarli shart-sharoitlar yaratib berildi.

Ushbu o'quv markazlarida 60 nafardan ziyod tinglovchi xorijiy tillarni o'rganmoq-da. Tumandagi 82-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosida joylashgan o'quv markazi tinglovchilaridan ikki nafari ingliz va koreys tillaridan tegishli sertifikatlariga ega bo'ldi. Jo'sh qishlog'idagi 1-hunar-texnika bilim yurti binosida faoliyat olib borayotgan o'quv markazi tinglovchilarining olti nafari B2, uch nafari B1 sertifikatlarini qo'lga kiritdi. Shuningdek, markazda tahsil olgan o'qu-vchilardan bir nafari koreys tilidan "Topik" sertifikatiga ega bo'ldi. Nemis tilidan saboq olgan bir nafar tinglovchi Germaniyada ish-lash uchun vizaga ega bo'ldi.

Ayni vaqtda har ikkala o'quv markazi tinglovchilaridan yana 20 nafardan ortig'i til bilish darajasini aniqlash maqsadida imtihon topshirishgan.

DIPLOMLARIMIZ DUNYO BO'YLAB TAN OLINADI

Institutda ta'lim, ilmiy va akademik hamkorlik, jumladan, o'qituvchi va talabalar almashinuvi bo'yicha AQSh, Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Turkiya, Janu-biy Koreya, Yaponiya va Xitoyning nufuzli universitetlari bilan hamkorlik qilinaypti. Jumladan, Fransiyaning Puate, Ispaniyaning Kadis, Kastiliya la Mancha, Germaniyaning Myunxen til va tarjima hamda Turkiyaning Burdur Mehmet Akif Ersoy va Hajettepe



universitetlari bilan Erasmus+ dasturining xalqaro kredit mobilligi yo'nalishida loyihalar amalga oshirilmoqda. AQSh, Germaniya, Italiya, Xitoy va Fransiyaning O'zbekistonda-gi elchixonalari hamda KOICA, Toshkentda-gi Gyote instituti kabi xalqaro tashkilotlar bi-lan ham mustahkam hamkorlik o'rnatilgan.

2022-2024-yillarda AQShning yur-timizdagi elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika kengashi bilan hamkor-likda "English Access Microscholarship Program" loyihasi tashkil etilgan. Loyiha doirasida viloyatning shahar va tumanlarida-gi maktablardan iqtidorli 33 nafar o'quvchi tanlov asosida saralab olinib, ular uchun bepul ingliz tili kurslari tashkil etildi. Mazkur loyihada institutning 4 nafar ingliz tili fani o'qituvchisi ishtirok etdi.

Yaqinda Samarqand davlat chet tillar instituti Yevropa Ta'lim sifati agentligi (Eu-ropean Quality Assurance Agency – EQAA) tomonidan to'liq institutsional akkreditatsi-yadan muvaffaqiyatli o'tdi. Endilikda institut nufuzi va diplomlari nafaqat Yevropada, bal-ki butun dunyo bo'ylab keng tan olinadi, tal-abalar va bitiruvchilarga xalqaro maydonda yangi imkoniyatlar uchun eshiklar ochiladi.

EQAA – xalqaro miqyosda tan olingan Yevropa va jahondagi eng nufuzli ta'lim si-fatini baholovchi agentliklardan biri bo'lib, u INQAAHE – International Network for Quali-ty Assurance Agencies (Jahon ta'lim sifatini ta'minlovchi agentliklar assotsiatsiyasi)ning to'laqonli a'zosi hisoblanadi.

Akkreditatsiyadan o'tish jarayonida in-stitut o'zining salohiyati va ilmiy faoliyatida, boshqaruv va infratuzilmasida xalqaro va milliy standartlarga to'liq javob berayotgani-ni xalqaro ekspertlar rasman tasdiqlashdi. Shu bilan birga, ta'lim sifati, olimlar va

ilmiy tadqiqotchilarning izlanishlari, pro-fessor-o'qituvchilar salohiyati, talabalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida olib borilayot-gan islohotlar, jamoatchilik bilan o'rnatil-gan aloqalar va mustahkam hamkorlik kabi yo'nalishlar xalqaro mezonlar asosida tashkil etilgani e'tirof etildi.

Besh yilgacha amal qiladigan mazkur akkreditatsiya ta'lim muassasasining institut-sional rivojlanishiga, xalqaro hamkorlik aloqa-larining yanada kengayishiga, xalqaro grantlar va ta'lim dasturlarida ishtirok etish imkonini berayotgani bilan ahamiyatli. Quvonarlisi, in-stitut xalqaro reytinglarda o'z o'rini mustah-kamlab boradi, dunyo miqyosida nufuzi oshib, tan olinish imkoniyati yanada ortadi.

Institutimizda endilikda xalqaro stipendi-yalar, qo'shma ta'lim dasturlari, profes-sor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvi uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Biti-ruvchilar xalqaro mehnat bozorida raqo-batbardosh bo'ladi. Talabalar va xodimlar uchun ta'lim va ilmiy izlanishda Yevropa tajribasi va xalqaro standartlardan foydala-nish imkoniyati kengayadi.

Ayni kunda institutimizda xorijiy tillarni o'qitish, jumladan, ingliz, nemis, fransuz, italyan, koreys, yapon, xitoy, turk, rus va arab tillari bo'yicha sifatlil mutaxassis tayyorlashga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari muvaffaqiyati-ning asosiy ko'rsatkichi global reytingdir. Institut jamoasi ushbu tendensiyalarga rioya qilgan holda xalqaro reytingni ko'tarish uchun zarur talablar ustida siddiqdildan ish-lab kelmoqda. Misol uchun 2025-yilda "THE Impact Rankings" reytingida institutimiz 16 ta indikator bo'yicha ishtirok etib, 1001-1500 talik o'rindan joy oldi. O'zbekiston miqyosida bu reytingda qatnashgan 59 ta oliy ta'lim muassasalari orasida institutimiz 19-o'rinni, viloyat bo'yicha esa 3-o'rinni egalladi. Shuningdek, "Webometrics Ranking of World Universities" reytingida institutimiz o'z o'rinni yaxshiladi: 2022-yilda 14537-o'rinda bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 11278-o'ringa ko'tarildi.

O'zbekiston universitetlari ichida esa 37-o'rindan 32-o'ringa ko'tarildi. "UI Green-Metrics World University Rankings-2024"da institutimiz 613-o'rinni egalladi va O'zbekis-ton bo'yicha 14-o'rinni qo'lga kiritdi. Mana shu sa'y-harakatlar natijasida 2030-yilga borib Samarqand davlat chet tillar instituti jamoasi xalqaro e'tirof etilgan ta'lim muas-sasalari reytingidagi 1000 talikdan o'rin olishni maqsad qilgan.



Bahodir XOLIQOV,
Samarqand davlat chet tillar
instituti rektori.

(Давоми.
Бошланиши 1-саҳифада).

– Булунғур тумани тарихига қарайдиган бўлсак, бу ерда дастлаб узумчилик ва шунга асосланган саноат ривожлан-ган, – дейди Булунғур тумани ҳокими Самандар Асто-нов. – Лекин йиллар ўтиб узумзорлар қисқарган ва сабза-вот ҳамда ғаллачиликка ихтисослашган. Бугун эса туман иқтисодиётида туб ўзгаришлар олиб борилмоқда. Айниқса, кейинги икки йилда Президентимизнинг Булунғурга алоҳида эътибор қаратишлари натижасида туманни ривожлантириш бўйича бир қатор қарорлар, дастурлар қабул қилинди ва улар асосида халқимиз турмуш даражасини ошириш, даро-мадини кўпайтиришга хизмат қиладиган янги йўналишлар пайдо бўлди. Хизмат кўрсатиш соҳасига эътибор ошди, ҳеч кимнинг ҳаёлига келмаган туризм йўналиши кириб келди. Бунинг натижасида илгари аҳолининг 46 фоизи қишлоқ ҳўжалиги билан шугулланган бўлса, бугунга келиб, бу кўр-саткич 43 фоизни ташкил этмоқда.

Жорий йилнинг 1 апрель куни Президентимиз томонидан қабул қилинган "Республика ҳудудларини жадал комплекс ривожлантириш учун танлаб олинган туман (шаҳар)ларда амалий чора-тадбирларни амалга ошириш тўғрисида"ги қарор Булунғур тумани учун тарихий ҳужжат бўлди, дейиш мумкин. Қарор билан 2025-2026 йилларда Булунғур тумани комплекс жадал ривожлантириш дастури тасдиқланди. 28 банддан иборат дастур асосан, саноат, хизмат кўрсатиш, қурилиш, қишлоқ ҳўжалиги соҳаларини ривожлантириш ва яшил ёндашув ва тамойилларни жорий этиш йўналишлари-ни ўз ичига олади.

Жумладан, "Ўғбдин" массиви ҳудудида туман ҳо-кимлиги захирасидаги 159 гектар ер майдонида импорт ўрнини босувчи, экспортга йўналтирилган ўрта-юқо-ри технологик лойиҳалар амалга оширилади. Тижорат банклари томонидан қиймати 30 миллиард сўм бўлган 5 та са-ноат лойиҳасини ишга тушириш орқали йилга қўшимча 12,9 миллиард сўмлик маҳсулотлар ишлаб чиқарилади. "Ўғбдин", "Амир Темур", "Қўнғирот", "Килдон" кичик саноат зоналари ва "Амир Темур" ёшлар саноат зонаси зарур мўҳандислик комму-никациялари билан таъминланади.

М-39 автомагистраль йўлининг Самарқанд, Улўбёк, Кат-тақишлоқ, Янгиариқ, Олмазор ва Ўғбдин маҳаллалари ҳуду-дидан ўтган йўл бўйларида 75 та савдо ва хизмат кўрсатиш объекти очилди.

Ўғбдин тоғининг Етимсой дараси ва Эрганакли маҳалласида жойлашган Ҳўжа Ҳофиз Меросий зиёратгоҳи ва "Шероз қалъа" археологик ёдгорлигида очиқ осмон остида музей ташкил этила-ди.

Туман марказидаги узунлиги 0,7 километр бўлган **Бу-лунғур шоҳ кўчаси 24/7 тизимида ишловчи кўнгилочар кўчага айлантирилади.** Унинг атрофида савдо ва хизмат кўрсатиш объектлари яратилади. Реновация дастури асосида Гулистон ва Булунғур маҳаллалари ҳудудида эски кўп қаватли ва якка тартибдаги уйлар ва нотураб объектлар ўрнида кўп қаватли уй-жойлар қурилади.

Иқтисодий жиҳатдан самарасиз, эскирган ва кам ҳосил-ли **350 гектар боғлар ўрнида янги боғлар яратилади.** Маҳаллалар "Бир маҳалла – бир маҳсулот", "Бир контур – бир маҳсулот" тамойили асосида мева-сабзавот етишти-ришга ихтисослаштирилади. Туманда етиштирилаётган мева-сабзавотларни сақлаш, қадоқлаш ва экспорт қилиш имкониятига эга замонaviy агрологистика комплекси таш-кил этилади.

БУЛУНҒУР ЖАДАЛ РИВОЖЛАНАЁТГАН ҲУДУДГА АЙЛАНМОҚДА

Қарорда жорий йил якуни билан туманда саноат ўсиши-ни 106,5 фоизга, бозор хизматларини 115,2 фоизга, қишлоқ ҳўжалигини 104,2 фоизга етказиш, ишсизлик даражасини 5 фоизга, камбағаллики 4 фоизга тушириш бўйича мақсадли кўрсаткичлар белгиланган.

– Бу вазифаларни амалга ошириш учун республика бюджетидан 70 миллиард сўм маблағ ажратилган, – дея сўзида давом этади туман ҳокими. – Бунга қўшимча яна 40 миллиард сўм ажратилиб, тадбиркорлик учун қулай муҳит ва аҳоли учун муносиб турмуш шароити яратилмоқда. Айни пайтда ушбу маблағлар ҳисобидан мўҳандислик коммуни-кация тармоқларини янгилаш ишлари амалга оширилмоқда. Буюртмачи ва лойиҳачилар аниқланган, ишлар жадал бо-шланган. Айрим ишлар якунига ҳам етказилди.

Туманимизнинг М-39 йўли бўйида жойлашгани, иқлими ва табиий имкониятлари туризм учун қулайлиги ҳисобга олиниб, кейинги пайтда бу соҳага алоҳида ёндашув билан ишляппимиз. Чўқурроқ кирганимизда, кўплаб имкониятлар,



қўшимча захиралар мавжудлиги аниқланди.

Мисол учун, туманимиз ҳудудидан қарийб 53 километр Булунғур ариқ канали ўтади. Унинг атрофида шу пайтга-ча одамлар чорва қилган, дарахт эккан, умуман, ёрдамчи ҳўжалик сифатида фойдаланган. Вақоланки, бу ерда дам олиш, соғломлаштириш масканлари ташкил этиш, туризм учун замонaviy хизматларни йўлга қўйиш мумкин. Шу боис айни йўналишга доир лойиҳаларни ишлаб чиқдик, йўл ва канал ёқасидаги бўш майдонлар келгусида хизмат кўрсатиш масканлари ташкил этиш учун аукционга чиқарилмоқда. Йўл ва бошқа интратузилма давлат томонидан яратилади,



қолгани аукционда ғолиб бўлган тадбиркорлар зиммасида бўлади. Бу орқали янги иш ўринлари яратилади, бюджетга қўшимча тушумлар таъминланади.

Дастурда ёшлар масалалари ҳам эътиборга олинган ва туман марказидаги **"Ҳумо" ёшлар сайилгоҳида дав-лат-хусусий шериклик асосида Ёшлар микроҳудуди" ҳамда 11 гектар майдонда амфитеатр, болалар ўйин-гоҳи, ёпиқ турдаги сузиш ҳавзаси ва бошқа кўнгило-чар хизмат кўрсатиш объектлари ташкил этиш белги-ланган.** Шу пайтгача богда кутубхона ташкил этилди, унинг ёнида эса спортнинг яккакураш турлари бўйича спорт зал қурилмоқда. Туманимиздаги "Диёр" стадиони ҳам таъмирла-нади ва бу ерда ҳам ёшларнинг спорт билан шугулланишля-ри учун зарур шарт-шароит яратилади.

Қишлоқ ҳўжалиги бўйича ҳар бир маҳалланинг имко-ниятларидан келиб чиқиб, ихтисослашуви, драйвер йўна-лишлар белгиланмоқда. Масалан, Килдон маҳалласида нок етиштириш оммалашмоқда. Сарқипчоқ маҳалласидаги бир фуқаромиз бу борада тажриба тўплаган, ўзи ниҳол етиштиришдан боғ яратишгача барча жараёнларни босиб ўтган. Кейинчалик қўни-қўшинлари, маҳалладошларига нок етиштиришни ўргатган. Ҳозирда шу атрофдаги уч маҳалла шу иш билан шугулланмоқда.

Дастурда реновация бўйича ҳам чора-тадбирлар бел-гиланган ва бунинг натижасида туман маркази қиёфаси тубдан ўзгаради. Қўйингки, бир туманда аҳоли учун нимаи-ги зарур бўлса, шу қарорда барчаси аниқ белгилаб берил-ган. Қарордан қўзланган асосий мақсад ҳам аслида аҳоли учун қулай яшаш, тадбиркорлар учун қулай ишбилармонлик муҳити яратишдир.

Бизни кемираётган иллатлар

Нега бидъат амаллардан қутилолмаймиз?

Яқинда бир танишим онасининг аза маросимига беш минг доллар сарфлаганини айтиб қолди. Шу пайтгача маъракаларга катта пул сарфланишини билмасдим. Лекин баъзилар аза маросимларини худди тўйдек ўтказаркан. Янаям ажабланарлиси, айрим жойларда майитни ювган аёлга бош-оёқ сарподан ташқари тилла тақинчоқ бериларкан. Самарқанд тўйларидаги ортиқча дабдабаларни билардим, энди билсам, аза маросимлари ҳам жуда аянчли аҳволда экан.



Яхшиям қишлоқ жойларда меҳр-оқибат кўтарилмаган, хоҳ аёл, хоҳ эркак бўлсин, майитни қариндошлари ювади, четдан бегонани ёллашмайди.

Бир маъракада ўзим гувоҳи бўлдим, ҳали майит хонадондан олиб кетилмасдан йиғилган аёлларнинг қўлига елим халтада нимадир тарқатиларди. Уялиб кетдим, бу тўй эмас-ку, биз совға олгани бормадик-ку!

Ўлик чиққан хонадон “худоийи”, “етти”, “ийгирма”, “қирқ”, “йил” каби маросимларни ўтказарди. Уларнинг ҳар бирига анча маблағ сарфланади. Лекин ушбу маросимлар бидъат амал экани, яъни марҳумга ҳеч қандай нафи тегмаслигини одамлар билмайдими, дин ула-молари халққа бу ҳақда тушунтирмайдими?

Ўзбекистон мусулмонлари идораси раи-си, муфтий Нуриддин Холиқназаров жорий йилнинг апрель ойида инсон вафот этганидан сўнг “етти”, “ийгирма”, “қирқ” каби маросим-лар қилиш бидъат, деб фатво берди. Бу фатво ижтимоий тармоқларда кенг тарқалди.

– Мен архивдан олдинги муфтийларнинг ҳужжатларини кўтардим, уларнинг ҳаммаси “етти”, “ийгирма”, “қирқ”, “йил” каби маросим-лар бидъат, дея фатво берган экан, - дейди муфтий ўз қишида. – Энди бунга амалга ошириш учун халқ бирлашиши керак. Бундан қандай қутилайлик деган гапдан қочиш керак. Бу одат эмас, бидъат.

Демак, бундан келиб чиқаптики, дин уламолари доим аза маросимларини ўтказиш-дан қайтарган экан. Аммо халқимиз орасида баъзилар яқинларининг аза маросимларини қолдирмасдан ўтказарди. Улардан андаза олганлар қарзга ботса ҳам одатга айланиб қолган бидъат амалларни давом эттирарди. Натижада антиқа урф-одатлар ҳаётимизга кириб келяпти.

Яқинда Каттақўрғон туманида айрим одам-лар аза маросимларини тўхтатганигини эшит-дим. Қишлоқ имони муфтий ҳазратларининг фатволарини халққа етказиб, бидъат амал-

BUGUN AHOLINI FATVO Bilan TO'G'RI YO'LGA SOLISH OSON EMAS

Мулоҳаза учун мавзу

Иқбол Мирзо онаси Мўътабархон ҳожи ая-нинг пенсия пулидан 20 миллион сўм, ўзининг пулидан 40 миллион сўм ва ўғилларининг пул-ларини қўшиб Японияга жўнатди. Япониядан Баҳодир Искандаров ушбу пулларни банкдан олиб, эгаларига топширишини айтди. Шунинг-дек, Иқбол Мирзо билан бўлган суҳбат тор доирада ўтса-да, Б.Искандаров шонидан узра сўраган ҳолда бу ҳақда пост қўйди. Социолог-нинг мақсади савобли амални халққа кўз-кўз қилиш эмас, балки ибрат бўлиши учун эълон қилди.

Аслида ҳам аза маросимларини қисқарти-риш учун халққа мана шундай тушунтириш ишлари олиб борилиши керак. Одамлар пул-ларини бефойда маросимларга совурмасдан савобли амалларга ишлатиши учун зиёлилар, халқ таниган, ҳурмат қиладиган инсонлар ўз ҳаётлари мисолида кўрсатиб бериши лозим.

Баъзилар бундай ақлли маслаҳатни ҳам-ма ҳам бераверади, аммо шу мақолани ёзган одамнинг ўзи гапига амал қиладими, дейиши мумкин. Бундан икки ярим йил олдин дадам Умра сафарида оламдан ўтди. Дадамнинг васи-ятига кўра, биз аза маросимларини ўтказмадик. Ҳатто азадор аёллар қиядиган қўқ қўйлаки ҳам қиймадик. Қариндош аёллар: “Одамлар нима дейди, аза қийим қиймасаларинг?”, деб сўраш-ди. Мен: “Одамларнинг гапи билан яшайман, агар шу қўқ қўйлак дадамга фойда берганида, албатта, қийган бўлардим”, дедим. Ҳеч ким эътироз қила олмади.

Бу гапларни мақтаниш учун ёзаётганим йўқ. Одам ўзига нима фойда, нима фойдасиз эканини тушуниб етса, ўқоридаги каби бидъат амалларга чек қўя оларкан.

Маҳмудхўжа Бехбудий “Бизни кемиргувчи иллатлар” мақоласида тўй ва аза маросим-ларини иқтисодий зарар келтирувчи, қарз ботқоғига итарувчи, халқни кемирувчи иллат деб баҳолаган: “Бир дўкончи, бир гулкор, бир фабрикхон, бир қосиб учун бу тўй ва таъзия-лар ўлумдан қаттиғдурки, мунинг учун бечора ҳар кун ўлур. Ҳар кун ўлгон ила-да қутулмас. Ўзидан сўнгра ахлу аёлига бу йўқсулик ва бу мусибатни мерос қўяр”.

Жадидлар беъмаъни урф-одатлар, маросим-ларнинг ривожланиб кетишига йўл қўйиб бер-масликка даъват қилган. Маҳмудхўжа Бехбудий халққа ўрнат бўлиш мақсадида камхарж тўй қилган. У ўғли Мақсудхўжанинг суннат тўйига кетиши мўлжалланган ортиқча сарф-харажатга Самарқанд шаҳридан бир бинони сотиб олиб, кутубхона очган. Вадуд Маҳмуд “Бехбудий ҳақидаги хотиралар”ида ёзишча, мутафаккир кутубхона учун Миср, Туркия ва Россиядан 6000 сўмлик китоблар харид қилган.

Ҳожи Мўн “Тўй – таъзия исрофлари” мақоласида: “Халқни ўз ҳолига қўйса, ўзи-нинг фойда-зарарини ўйламай, ҳар бир тўри келган ишни қилаверади, ўлганча фойдасиз урф-одатларнинг асоратидан чиқа олмайди. Шунинг учун халқни ўз ҳолига қўйиш тузуқ эмас. Масъул кишилар ва ёшларимиз бу му-аммоларни ҳал қилишда, тўхтатишда халққа йўлбошичи ва таъминотчи бўлиб туришлари керак” деган.

Дарҳақиқат, ўлим ҳаммининг бошида бор. Яқинидан ажралган инсон бидъат амалларни эмас, марҳумга савоби етиб турадиган хайр-ли ишларни қилса, нур устига нур. Хулоса ўзингиздан.

Хуршида ЭРНАЗАРОВА.



Olimpiya va paralimpiya o‘yinlariga qanday tayyorgarlik ko‘rilyapti?

Viloyatda sportni yanada rivojlantirish, iqtidorli sportchilarni saralab, milliy terma jamoalarga yetkazib berish, Olimpiya, Paralimpiya hamda xalqaro musobaqalarda munosib ishtirokini ta’minlash maqsadida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

Hozirgi kunda viloyatda 23 ta olimpiya, 4 ta milliy, 1 ta qishki va 33 ta noolimpiya sport turi bo’yicha federatsiyalar, 1 ta O’zbekiston adaptiv sport turlari assotsiatsiyasi, 2 ta jismoniy tarbiya va sport jamiyati, shuningdek, 1 ta sport kengashi faoliyat yuritmoqda.

Viloyat sport boshqarmasi boshlig’i Jasur Nurmonovning ta’kidlashicha, joriy yilning birinchi yarimida 400 ga yaqin mahalliy, respublika va xalqaro miqyosdagi sport tadbirlari tashkil etilgan. Sportchilarimiz tomonidan ushbu musobaqalarda 1360 ta oltin, kumush va bronza medallari qo’lga kiritilgan. Shu bilan birga, 803 nafar sportchi O’zbekiston milliy terma jamoasining asosiy, 485 nafar esa xazira tarkibiga jalb etilgan.

FEDERATSIYALAR REYTINGI: QONIQARLI, O’RTA, PAST

– Sport turlarini rivojlantirish va om-malashtirish maqsadida sport federatsi-yalari va bo’limlar faoliyati doimiy tahlil qilib borilmoqda, – **deydi J.Nurmonov.** – Tahlillar natijasi asosida ular qoniqa-rlı, o’rta va past toifalarga ajratilgan. Jumladan, dzyudo, eshkak eshish, erkin va yunon-rum kurashi, yengil atletika, gimnastika, boks va velosport qoniqarli, taekvondo (WTF), voleybol, basketbol, suzish, gandbol, og’ir atletika, kamon-dan otish, tennis va boshqa sport turlari (jami 20 ta) o’rta, qilichbozlik, ot sporti, texnik va o’q otish turlari, badminton va regbi sport turlari past toifaga kiritilgan. Past sport turlari bo’yicha ko’rsatkichlarni yaxshilash, viloyatda sport infratuzilmasini rivojlantirish, yoshlar o’rtasida ommaviy sportni keng targ’ib etish borasida har bir hudud bo’yicha qo’shimcha chora-tadbir-lar belgilanib, mas’ullar birkitirilgan. Prezidentimizning 2025-yil 8-iyuldagi qaroriga muvofiq, 2028-yil Los Anjelesda bo’lib o’tadigan Olimpiya va Paralimpiya o’yinlariga tayyorgarlikning ustuvor vaz-i-falari belgilab berildi. Qarorda iqtidorli sportchilarni saralash, sportning ustuvor, istiqbolli va rivojlanayotgan toifalarida litsenziyalari sonini ko’paytirish va medallar sonini oshirish muhim vazifa etib belgilan-gan. Xo’sh, viloyatda bu borada amaliy ishlar boshlandimi?

OLIMPIYA VA PARALIMPIYA O’YINLARIGA 59 NAFAR SPORTCHI SARALAB OLINDI

– 2028-yilda Los Anjelecd a o’tkazil-adigan XXXIV yozgi Olimpiya o’yinlariga viloyatimizdan 12 ta sport turi bo’yicha 38 nafar sportchi, XVIII Paralimpiya o’yin-lariga 10 ta sport turidan 21 nafar sport-chi saralab olindi, - deydi J.Nurmonov. – Ushbu sportchilarning musobaqalarga yuqori saviyada tayyorgarlik ko’rishi uchun viloyatimizda zamonaviy mashg’ulot ba-zalari mavjud. Hozirda ular trenerlari bilan birgalikda milliy terma jamoalar tarkibi-da o’quv-mashg’ulot yig’inlari hamda musobaqalarda qatnashmoqda.

“YANGI O’ZBEKISTON OLIMPIYA CHO’QQILARI” YOSHLARGA NIMA BERADI?

Davlatimiz rahbari tashabbusi bi-lan 2028-yilgi Olimpiya va Paralimpiya o’yinlariga sportchilarni tayyorlash va ishlarni tizimli tashkil etish maqsadida Milliy olimpiya qo’mitasi tarkibida 14 ta hududiy bo’lim tashkil etildi. Hokimlar hududlarda Olimpiya harakatini rivojlan-tirishda Prezidentning vakillari bo’ldi. Ya’ni, O’zbekiston Milliy olimpiya qo’mi-tasi hududiy bo’limlariga hokimlar mas’ul. Shuningdek, Prezidentning “2028-yil Los-Anjeles shahrida bo’lib o’tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o’yinlariga O’zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to’g’risida”gi qarori-ga ko’ra, O’zbekistonda yilda ikki marta

“Yangi O’zbekiston Olimpiya cho’qqilari” sport musobaqalari o’tkaziladigan bo’ldi. – “Yangi O’zbekiston Olimpiya cho’qqi-lari” musobaqalari milliy terma jamoalar uchun iqtidorli yoshlarni saralashda katta tanlov maydoni bo’lishi bilan birga, yur-timizda ommaviy sport targ’ibotini kuchay-tirishga xizmat qiladi, - **deydi O’zbeki-ston Milliy Olimpiya qo’mitasi viloyat bo’linmasi ijrochi direktori Qayum Sobirov.** – Davlatimiz rahbari topshirig’iga asosan, uch bosqichdan iborat ushbu sport o’yinlarining ilk musobaqalari sinov tariqasida mintaqalarda tashkil etildi. Unda sportimiz kelajagi bo’lgan 15-17 yosh-li navqiron avlod vakillari dzyudo, boks, taekvondo WT, og’ir atletika, yunon-rum kurashi, erkin kurash, yengil atletika, stol tennisi, badiiy gimnastika, 3x3 basketbol yo’nalishlarida bahslashdi. Jumladan, ushbu musobaqalarda 15 ming 750 nafar yoshlar qatnashib, 930 nafari musob-aqaning viloyat bosqichiga chiqdi. Viloyat bosqichi g’oliblari Olimpiya shaharchasida o’tkaziladigan Prezident olimpiadasida ishtirok etadi. Musobaqa g’oliblari uy, avtomobil kabi qimmatbaho sovg’alar bi-lan taqdirlanadi. Birinchi va ikkinchi o’rinni olgan sportchilar Respublika olimpiya va paralimpiya markaziga qabul qilinadi. Bunda 1-, 2-kurs o’quvchilariga tegishli tartibda stipendiya to’lanadi.

SPORTCHILARIMIZ NUFUZLI SPORT MUSOBAQALARIDA ISHTIROK ETADI

Ma’lumotlarga ko’ra, joriy yilning av-gust oyida Xitoyning Chindu shahri Butun-jahon o’yinlariga, Ozarbayjonning Ganja shahri MDH o’yinlariga mezbonlik qiladi. 23-24-avgust kunlari Samarqand eshkak eshish kanalida triatlon bo’yicha “Challenge Samarkand-2025” xalqaro musobaqasi o’tkaziladi. Oktabr oyida Manama shahrida yoshlar o’rtasida Osiyo o’yinlari, Braziliyada BRIKS o’yinlari, noyabrda Ar Riyod shahrida Islom birdamlik o’yinlari bo’lib o’tadi.

17-24-avgust kunlari sport kurashlari bo’yicha Bolgariyaning Samokov shahrida bo’lib o’tadigan 17-23 yoshlar o’rtasidagi jahon chempionatiga viloyatimizdan yakka kurash bo’yicha Fayozbek Eshmirzayev, erkin kurashdan Sherzod Poyonov ishtirok etadi. Shuningdek, 28-avgust – 10-sen-tabr kunlari Tailandning Bankok shahrida yoshlar va ayollar o’rtasida o’tkaziladigan Osiyo chempionatiga bokschi-qizlarimizdan Gulsevar G’aniyeva, Maftuna Musurmono-va, Sevara Mamatova ringga chiqadi. Sentabr oyida esa Angliyada boks bo’yicha o’tkaziladigan jahon chempionatida Nigi-na O’ktamova hamda Sitora Turdibekova yurtimiz sharafini himoya qiladi. Og’ir atle-tikachimiz Sharofiddin Amriddinov oktabr oyida Norvegiyada tashkil etiladigan kattalar o’rtasidagi jahon chempionatida, noyabrda Saudiya Arabistonida Islom birdamligi o’yin-larida qatnashadi.

Fazliddin RO’ZIBOYEV, “Zarafshon” muxbiri.

Texnologiya inson hayotini yengillashtirdi. Hozir bir tugma bilan muloqot qilamiz, bir zumdada dunyoni aylanamiz, istagan malumotimizni topa olamiz. Bu qulayliklar orasida ko’zga ko’rinmas, ammo yurakka og’ir ta’sir qilayotgan bir muammo bordek go’yo, ya’ni ota-ona va bola orasidagi begonalik.

O’z hayotimda, atrofimdagi tanishlarimda, ko’chadagi bo-lalarda bir holatni sezyapman - bola ota-onasi bilan emas, gadjetlar bilan yaqin. So’zsiz, texnologiya bugungi kunda zamon talabi hisoblanadi. Lekin bola onasiga emas, planshetga

Og’riqli begonalik

mehr qo’ysa, otasining so’ziga emas, ijtimoiy tarmoqdagilar fikriga ergashsa - bu jiddiy xavf emasmi?

Yosh bola ko’chada ketmoqda, yonida onasi bor, lekin bolaning ko’zlari telefon-ga tikilgan. Ona gapiradi, lekin bola eshitmaydi. Yoki aksincha, bola nimalarnidir aytmoqchi, ona telefonga sho’ng’igan. Ularning tanasi bir joyda, qalbi esa boshqa olamda. Nazari-mda, bu eng og’riqli begonalik. Chunki bu sukunat emas, ona va farzand o’rtasidagi aloqa-ning uzilishidir. Texnologi-yalar bizni yaqinlashtirgandek tuyuladi, aslida esa qalblarim-izni uzoqlashtiryapti. Ota-ona-niing yuragi farzandiga ochiq bo’lmasa, u kimga murojaat qiladi? Axir farzand so’zsiz ham yordam so’raydi - u jim bo’lib,

o’zini yolg’iz his qilib so’raydi. Afsuski, bu signalni ota-onalar ko’rmayapti. Ko’p hollarda o’zimni bolalarning o’rniga qo’yib ko’raman. Bolaligim-da qanday muammom bo’lsa onamga aytardim, u esa sabr bilan eshitardi. Mening yonim-da qolardi. Hozir-chi? Bola yig’laydi, onasi telefon tutqa-zadi. Menimcha bola raqamli texnologiyaga emas, insoniy mehrga ko’proq muhtoj. Plan-shet emas - quchoq, ekran emas - ota-onaning diqqati, eng muhimi - kimdir uni esh-itishini his qilishi kerak. Agar bu hissiyotni ota-ona emas, gadjetlar beraversa, bola bilan ota-ona o’rtasidagi masofa kengayaveradi.

Muammoni ko’rish bilan hal qilib bo’lmaydi. Uni birinchi navbatda tahlil qilib, yechim

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O’zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro’yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 827 nusxada chop etildi. Buyurtma 387. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E’LONLAR: (66) 233-91-56

BO’LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug’ Tursunov ko’chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo’limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko’chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G’.HASANOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o’tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda